

Jomboy tumani

Bizlar "Jomboy" tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan direktor X.Xamrayev bir tomondan va OOO AMIRSHOX STROY QURILISH (Keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan direktor N.Nuriddinova ikkinchi tomondan "Jomboy" tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi xarid komissiyasining 2022 yildagi 189011-sonli bayonnomasi asosida ushbu pudrat shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1 «Pudratchi» mazkur shartnoma bo'yicha Samarqand shahar Telefonный переулок kучасини жорий тамирлаш L=135 м ko'zda tutilgan holda va belgi-langani muddatlarda bajarish, «Buyurtmachi» esa bu ish xizmatlarni qabul qilib olishi va bajarilgan ishlar uchun ajratilgan mablag'dan kelib chiqqan xolda, o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

2.1 Ish xizmatlarning nomi, miqdori, sifati va narxi, mazkur shartnomadagi "jadval№1" ga muvofiq aniqlanadi. «Pudratchi» tomonidan shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlar barcha so'zlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarida

Jadval №1

№	Ish xizmatlarning nomi	Miqdori Km	Pudratchiga to'lab berishga kelishildi (QQS bilan xisoblangan qiymati) so'm
1	Самарқанд шаҳар Телефонный переулок кучасини жорий тамирлаш L=135 м	0.135	81 300 000,00
		Jami:	81 300 000,00

Shartnomaning umumiy so'mmasi (Sakson bir million uch yuz ming) so'm 00 tiyin

- 2.2. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha umumiy qiymatining 30 % foizi miqdorida avans mablag'i shartnoma qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 10 ish kunida, ob'yekt bo'yicha yakuniy hisob-kitob ob'yekt foydalanishga topshirilgan kundan boshlab bir oy ichida amalga oshiriladi.
- 2.3. «Pudratchi» ob'yektni foydalanishga topshirish to'g'risidagi dalolatnomani Buyurtmachiga topshirgandan so'ng, bajarilgan ishlar haqining qolgan 5 % (foiz) mablag'i to'lab beriladi.
- 2.4. «Pudratchi» bajarilgan ishlar qiymatidan 2% (foiz) miqdorda «Bosh Pudratchi» xarajatlarini to'lab beradi.

3. SHARTNOMA SHARTLARI:

- 3.1. «Pudratchi» faqatgina «Buyurtmachi» bilan shartnoma tuzgandan keyin ishlarni bajarishni amalga oshiradi.
- 3.2. Ishlar va xizmatlarga egalik huquqi «Buyurtmachi» ga loyixaga smeta xujjatlarida ko'rsatilgan ishlar «Pudratchi» tomonidan to'liq bajarilgandan keyin o'tadi.
- 3.3. «Pudratchi» tomonidan qurish davrida ishturlariga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan oldindan «Buyurtmachi» ga yozma ravishda bildirish kiritadi, ushbu holda «Buyurtmachi» belgilangan tartibda ko'rib chiqib, ish turlariga o'zgartirishlar kiritish yoki uni rad etish yuzasidan qaror qabul qiladi.
- 3.4. «Pudratchi» tomonidan qurish davrida o'zgartirishlar kiritish turlariga smeta qilinib, ushbu smetaga belgilangan tartibda ekspertiza xulosasi olingandan so'ng to'lovlar amalga oshiriladi.
- 3.5. «Pudratchi» shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda yordamchi pudratchilar xizmatidan foydalansa, yordamchi pudratchining nomi va manzili, balansida texnika bor yoki yo'qligi, shartnoma mavzusi to'g'risida «Buyurtmachi» xabardor qilishi shart.
- 3.6. Pudratchi shartnomada ko'rsatilgan ishlarni 50%dan ortig'ini o'z kuchlari bilan bajarishi shart.
- 3.7. «Pudratchi» loyiha-smeta xujjatlari bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyalardan chiqmagan holda haqiqatda ishlatilgan ish turlari, mashina mexanizmlari va bajarilgan ish hajmlari bo'yicha «Buyurtmachi» tomonidan moliyalashtirish amalga oshiriladi.

4. BAJARILGAN ISH SIFATI.

- 4.1. «Pudratchi» tomonidan «Buyurtmachi» ga bajarilgan ishning sifati va ish xajmlari loyixaga smeta xujjatlariga asosan bajarilishiga va davlat standarti talablariga muvofiq kelishiga kafolat beradi.
- 4.2. Bajarilgan ishning sifati va davlat standarti talablariga muvofiqligini «Buyurtmachi» va «Yo'lqurilishnazorat» inspeksiyasi doimiy ravishda nazorat qilish boradi.

5. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

- 5.1 «Pudratchi» mazkur shartnoma imzolangan va g'aznachilik bo'limi ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi va 2022 yilning 27 noyabrigacha ob'yektni foydalanishga topshiradi.
- 5.2 «Pudratchi» ob'yektda joriy ta'mirlash ishlarini joriy yilga ajratilgan mablag'dan kelib chiqqan xolda bajaradi, bunda agar mablag' ajratilishi keyingi yillarga kuchirilsa O'zRVMning 2003 yil 11 iyundagi 261-sonli Qaroriga asosan smetada bajarilmagan ish turlarining narxleri o'rganib chiqilib Qurilish Vazirligining xulosasiga shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuziladi.

6. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

- 6.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.
- «Pudratchi» tashkilot qonunchilikka asosan va shartnomaga muvofiq «Buyurtmachi» oldida quyidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir:
- Sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari;
- Ob'yektni hamda uning bosqichlari va navbatlarini belgilangan muddatda tugallanmagani;
- «Pudratchi» shartnomada ko'rsatilgan ishlarni 50%dan ortig'ini o'z kuchlari bilan bajarilmaganligi uchun;
- «Buyurtmachi» bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish-montaj va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan uskunalarini montaj qilish muddatlarini buzilishi;
- Ob'yektning loyiha-smeta xujjatlarida belgilangan yerlarni rekultivatsiya qilish ishlari bajarish hajmlari va muddatlarining buzilishi;
- Mukammal, qayta qurish jarayonid ayoki oraliq qabul qilishda «Pudratchi», mualliflik nazorati va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruksiya va ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishni orqaga surish;
- Shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarini bajarmagan yoki to'la-qonli bajarmagan.
- «Pudratchi» tashkilot tomonidan ishlarning bajarilishida pudrat shartnomasidan chekinish yoki boshqa kamchiliklar mavjudligida «Buyurtmachi», agar qonunchilik yoki ishartnomada boshqa shartlar ko'zda tutilmagan taqdirda, pudratchi tashkilotdan o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega: nuqsonlarni oqilona muddatlarda o'z hisobidan bartaraf etishni;
- Agar «Pudratchi» tashkilot nuqsonlarni kelishilgan muddatlarda bartaraf etmasa, «Buyurtmachi» yoki ob'ektdan foydalanuvchi tashkilot o'z kuchi bilan «Pudratchi» hisobidan nuqsonlarni bartaraf etish hamda nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilmaganligidan keltirilgan zararni va bajarilgan ish qiymatini undirish huquqiga ega.
- 6.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzilganligi uchun «Buyurtmachi» «Pudratchi» ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,4% foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi moliyalashtirilmagan mablag' qiymatining 50 % dan oshmasligi lozim.
- Penya to'lanishi «Buyurtmachi» ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.
- 6.3. Moliyalashtirishning kechikishi "Investor" ning aybi bilan sodir etilsa, moliyalashtirish bo'yicha «Buyurtmachi» «Pudratchi» ning oldida javobgar bo'lmaydi.
- 6.4. Pudratchi tomonidan ob'yektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha majburiyatlarini buzilgan bo'lsa «Pudratchi» «Buyurtmachi» ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50%dan oshmasligi lozim.
- «Buyurtmachi» tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun «Pudratchi» «Buyurtmachi» ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,4 % miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50% dan oshmasligi kerak. «Pudratchi» Buyurtmachiga shartnomaning 3.5. bandida ko'rsatilgan talablarni buzib, yordamchi pudratchi to'g'risida

ma'lumotlarni taqdim etmagan, shuningdek, «Pudratchi» shartnomada ko'rsatilgan ishlarni 50%dan ortig'ini o'z kuchlari bilan bajarilmaganligi aniqlangan holatlarda, «Buyurtmachiga» yordamchi pudratchi bilan tuzilgan shartnoma summasing 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Penya to'lash «Pudratchi»ni ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi. 6.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda «Buyurtmachi» «Yul-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi»ning xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek «Pudratchi»dan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 10 % miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

6.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur bandda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplamagan zararlarni qoplaydi.

6.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlar boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlar bajarishdan ozod qilmaydi.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

7.1. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

7.2. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

7.3. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7.4. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudida to'g'ridan-to'g'ri da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI:

8.1. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022yil 31 dekabrga qadar.

8.2. Shartnoma quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin;

- tomonlar kelishuviga muvofiq;

- Agarda shartnomaning 5.1-bandida belgilangan muddatda «Pudratchi» tomonidan ob'jekt foydalanishga topshirilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Pudratchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlar buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelibchiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bundan qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Pudratchi» va «Buyurtmachi» ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

11. BOSHQA SHARTLAR:

11.1. Agar «Pudratchi» shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda «Buyurtmachi» «Pudratchi» qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

11.2. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

11.3. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

11.4. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

11.5. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng huquqiy kuchga kiradi.

11.6. Mazkur shartnoma imzolagandan keyin, tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, o'zaro kelishuvlar o'z kuchini yo'qotadi, shartnomaga kiritilayotgan o'zgarish va qo'shimchalar yozma kelishuv bitimiga asosan kiritiladi.

TARAFLAR MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

“BUYURTMACHI”

“PUDRATCHI”

Nomi: “Jomboy TYFUK”

Manzili: Jomboy sh. SH Burxonov ko'chasi № 1

Bank: “Milliy bank” Samarqand filiali

X/P: 22626000300377706003

STIR: 200736669

OKED: 42110

MFO: 00278

Nomi: OOO AMIRSHOX STROY QURILISH

Manzili: : Oqdaryo tumani, Pulatdarxon MFY Juraboy q

Bank: Samarqand sh, “KAPITALBANK” Samarqand filiali

XG'R: 20208000200872227001

MFO: 01061

STIR: 306542864

Direktor

A. Xamrayev

Direktor

N. Nuritdinova

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadqiq etilmaydi.

Yurist

Yurist